TILSHUNOSLIK

UDK: 81'358.212 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a118**

TILDAGI TASVIRIY IFODALARNING TARJIMALARDA AKS ETISHI

REFLECTION OF THE FIGURATIVE EXPRESSIONS OF THE LANGUAGE IN TRANSLATIONS

ОТРАЖЕНИЕ ОБРАЗНЫЕ ВЫРАЖЕНИЯ В ЯЗЫКЕ В ПЕРЕВОДАХ.

Xolmirzaev Baxtiyor Mirzamaxmudovich[1]

[1]Xolmirzaev Baxtiyor Mirzamaxmudovich – Namangan muhandislik-texnologiya instituti, “Chet tillar” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Barchamizga ma’lumki, tilda ifodalanayotgan fikrlarni tushunarli, ta’sirli, qolaversa, obrazli qilib ifodalashda tilda mavjud bo‘lgan tasviriy vositalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Ushbu maqolada ijtimoiy-siyosiy asarlarda tasviriy ifodalarning qo‘llanishi hamda ularning tarjimasi masalasiga munosabat bildirilgan.

Аннотация

Все мы знаем, что использование имеющихся в языке изобразительных средств дает эффективные результаты в выражении идей, выраженных в языке, понятным, эффектным и, кроме того, образным способом. В данной статье рассматривается вопрос использования образных выражений в общественно-политических произведениях и их перевод.

Abstract

We all know that the use of figurative expressions available in the language gives effective results in expressing the ideas expressed in the language in an understandable, effective, and, moreover, figurative way. This article deals with the issue of the use of figurative expressions in socio-political works and their translation.

Kalit so‘zlar: *Obrazli, tasviriy ifodalar, tarjima, frazeologik birliklar, uslub, milliy xoslik, muallif nutqi, asliyat matni, ijtimoiy-siyosiy.*

Ключевые слова: *Образные, образные выражения, перевод, фразеологизмы, стиль, национальная идентичность, авторская речь, оригинальный текст, общественно-политический.*

Key words: *Figurative, descriptive expressions, translation, phraseological units, style, national identity, author's speech, original text, socio-political.*

KIRISH

Odatda, so‘z birikmalari va gaplar so‘zlarning erkin bog‘lanmalarida so‘zlar ma’no mustaqilligini saqlagan holda nutq jarayonida birikishidan hosil bo‘ladi. Shuning uchun bunday bog‘lanmalar ma’lum tushuncha yoki fikr anglatish talabi bilan muayyan tilning grammatik qonun-qoidalari asosida bevosita nutqda hosil bo‘lganligi uchun butun holatda saqlanmaydi. *Turg‘un birikmalar, barqaror so‘z birikmalarini* tashkil qilgan so‘zlarning ma’no va grammatik munosabatida mustaqillik bo‘lmaydi. Ular yaxlit ma’no anglatib, bir so‘zga teng kelishi ham mumkin. Shuning uchun bunday birikmalar nutq jarayonida tuzilmay, balki nutqqacha til tizimida bir butun holatda mavjud bo‘ladi. Demak, frazeologik birikmalar tuzilishi jihatidan so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, mazmun tomonidan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida hosil qilinmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan til birligi hisoblanadi. Binobarin, ular bir butun holga keltirgan hodisa tarkibidagi so‘zlarning bir ma’no markaziga kelib birlashishidir.

Frazeologik birikmalarni tashkil qilgan so‘zlarning ma’no mustaqilligi saqlanmaydi, ular yaxlit holda ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. Shu sababli bunday birikmalar kishi xotirasida yaxshi saqlanib qolishi mumkin. Demak, frazeologik birikmalar voqelikni nomlash bilangina chegaralanib qolmasdan, ko‘chma ma’noni ham ifodalaydi. Shuning uchun frazeologik birikmalar nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-siyosiy matnning, umuman nutqning ifodaliligi, timsoliyligi, emotsionalligi, ta’sirchanligini oshiradi. Bu borada A. Abdullaev ularni: “Frazeologizmlar nominativ ma’no va qo‘shimcha ottenkalarning ajralmas birligidan iborat bo‘lgan maxsus nutqiy figuralardir”, – deb ta’riflaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Til taraqqiyotida frazeologik birliklarning o‘ziga xos o‘rni bor. Bu borada taniqli tilshunos olim I. V. Arnold har qanday tilning taraqqiy etib, boyib borishi faqat yangi so‘zlar hosil bo‘lishi bilangina emas, balki, shu bilan birga, muayyan tilning o‘zida turg‘un birikmalarning ortib borishi hisobiga ham yuz berishini ta’kidlagan. Shuning uchun frazeologik birikmalarning hosil bo‘lishi, leksik-grammatik, semantik tabiati, muhim xususiyatlari rus tilshunosligida ham birmuncha chuqur o‘rganilgan. Xususan,

V.V.Vinogradov tildagi frazeologizm masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Undan tashqari, frazeologizmlar masalasi borasida F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatov, A.M.Peshkovskiy, A.A.Potebnyalar alohida tadqiqotlar olib borishgan. O‘zbek tilshunoslaridan Sh.Rahmatullaev, A.Hojiev, I.Qo‘chqortoev, A.Mamatov va boshqalar ham ilmiy ishlar yaratishgan. Sh.Rahmatullaev va K.Hakimovlarning bir qator tadqiqotlari aynan frazeologik birikmalarning xususiyatlariga bag‘ishlangan.

Tarjimaning frazeologik muammolari to‘g‘risida gapirilganda G‘aybulla Salomovning “Til va tarjima” nomli monografiyasini alohida ta'kidlab o‘tish kerak. Ushbu asarida frazeologik birliklar tarjimasi masalasiga original asar muallifi uslubi, uning badiiy tarovatida mazkur tasvir vositalarining o‘ziga xos o‘rniga alohida diqqatni qaratib, ularni o‘zga tilga o‘girishda tarjima tili imkoniyatlaridan foydalanib, ayniqsa, asliyatning milliy xosligini hisobga olgan holda tarjima qilish talabini ilgari suradi. Bundan tashqari, frazeologizmlar tarjimasida asliyatdagi barqaror birikma, maqol, matal va idiomatik iboralarni o‘zga tilga o‘girishda ularning obyektini saqlagan holda o‘girish kerakligi ham mazkur tadqiqotda ko‘rsatib o‘tiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, frazeologik birliklar ijtimoiy-siyosiy nutqning ifodaliligini, hissiyotliligi va ta'sirchanligini oshirgan holda ma'lum bir maqsadni ko‘zlab qo‘llanadi. Tadqiqot ishimizda, tahlil jarayonida muallif o‘zining O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarida yuzdan ortiq **frazeologik birliklar**dan unumli, maqsadli foydalanganini guvohi bo‘ldik. Asar muallifi o‘z fikrini ommabop tarzda ifodalashda xalq orasida ishlatiladigan frazeologik birliklarni keng istifoda etgan.

Misollarga murojaat qilamiz:

«Tarix o‘z hukmini chiqarar ekan, hamma vaqt **sholini kurmakdan ajratadi** va g‘arazli, xudbin maqsadlarini ko‘zlab, xalq manfaatlarini niqob qilib oluvchi shaxslarning o‘zlarini oqlash uchun keltiradigan kibr-havodan iborat dalillarini qabul qilmaydi».

Ushbu matnda muallif respublikamiz tevaragida sodir bo‘layotgan urushlarning O‘zbekiston fuqarolarining tinch, farovon yashashi va ravnaq topishiga tahdid solayotganini va kelgusi avlod ana shu urush olovini yoqib, undan manfaatdor bo‘layotgan nopok kimsalarni hech qachon kechirmasligini ta'kidlamoqda. U o‘z fikrlarini yorqin ifodalab, o‘ziga xos uslubda ish yuritib, o‘zbek milliy urf-odatlari, an'analari, qolaversa, kundalik hayotidan kelib chiqqan holda oddiy o‘zbek o‘quvchisiga ham tanish bo‘lgan so‘zlardan hosil bo‘lgan frazeologik birlikdan foydalanadi. Aslida “sholi” so‘zi – “issiq mamlakatlarda botqoqda o‘sadigan, boshoqlarida guruch yetishtiriladigan don o‘simligi, shu o‘simlikning oqlanmagan, guruch holiga keltirilmagan hosili”. Undan kishilar hayotiy zaruratdan kelib chiqib, ermak sifatida foydalanishadi, ya'ni u o‘zbeklarning asosiy milliy taomlaridan birini tayyorlashda ishlatiladigan xom ashyo. Uni yetishtirish ham o‘ziga xos bo‘lib, albatta, chiroyli, mazali va butun qilib yetishtirib olish uchun, avvalo, uni kurmaklaridan tozalab olinadi. “Kurmak” so‘zi “odatda sholipoyada ko‘p o‘sadigan yovvoyi o‘t va uning qoramtir tariqqa o‘xshash doni” ma'nosini anglatadi. Muallif o‘z fikrini ta'sirchan va timsoliy ifodalab, vaziyatni O‘zbekistonda yashayotgan, sholi bilan kurmakni bir-biridan ajrata oladigan har bir odam uchun tushunarli qilib tasvirlab bergan. Sholi pishib etilgunga qadar ham kurmakdan tozalab boriladi. O‘zbeklarning milliy taomi bo‘lmish “palov”ni tayyorlashda ham sholining hosilasi bo‘lmish guruch kurmaklardan tozalab olinadi. Oshpaz yoki sholikor hech qachon sholini ichiga kurmakni aralashtirib yubormaganiday kelajak avlod ham bugungi rivojlanishimizni, mustaqilligimizni, tinchligimizni ko‘rolmayotgan g‘araz niyatli kishilarni ajratib oladi va aslo kechirmaydi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, muallif “sholini kurmakdan ajratadi” frazeologik birikmasi orqali “yaxshini yomondan farqlab oladi” degan ma'noni timsoliy va ta'sirchan, qolaversa, oddiy xalq, sholikor dehqon ham oson tushuna oladigan tilda ifodalab bergan.

Shu o‘rinda bir misolga e'tiboringizni tortamiz:

“History, when making its final decisions, **always separates the husk from the grain** and does not accept justifications like the ambitions of certain individuals who hide their own malignant wishes behind the alleged interests of the whole nation.”

Ushbu matn asarning ruscha nashrida quyidagicha ifoda etilgan:

«Istoriya, versha svoy sud, vsegda **otdelyaet zerna ot plevel** i ne prinimaet v kachestve opravdaniy ambitsii lichnostey, prikrыvayuщixsya interesami naroda radi sobstvennыx uzkokorыstnыx tseley».

Mutarjimlar asliyatdagi “sholini kurmakdan ajratmoq” birikmasini o‘girishda muqobil variant tamoyilidan foydalanib, ingliz tiliga “separates the husk from the grain” (donni po‘stlog‘idan ajratmoq), rus tilida esa yana shunga yaqin ibora bo‘lmish “Otdelyaet zerna ot plevel” (bug‘doyni begona o‘tdan ajratmoq) tarzida ifodalangan. Bunda, albatta, to‘g‘ri yo‘l tutilgan.

TILSHUNOSLIK

Har bir xalqning o‘z maqollari, matallari va hikmatlari bo‘ladi. Tarjima vositasida ulardan boshqa xalqlar ham bahra olaveradi. O‘zbekcha matnda berilgan guruch bilan bog‘liq hikmatli ibora, haqiqatan ham, milliy bo‘yoqqa ega. Chunki biz – osiyoliklar, chindan ham, *guruch*ni yevropaliklarga nisbatan ko‘proq iste’mol qilamiz. Bu mahsulot nafaqat oziq-ovqat mahsulotlariga, balki xalqona hikmatlarimizga ham chuqur kirib borgan. Ingliz yoki ruslarda esa, *don* yoki *bug‘doy* guruchga nisbatan faolroq ekani ham – to‘g‘ri. Shu jihatdan olganda, tarjima – asliyatga muqobil.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, asar tarjimonlari asliyatda qo‘llangan frazeologik birlikni tarjima tilida mavjud bo‘lgan muqobili bilan almashtirgan holda ma’no va uslubni saqlab qolishga erishishgan. Bunda tarjima tili egasi bo‘lgan xalq urf-odatlari va milliyligi ham e’tibordan chetda qolmagan. Ayni misolda muallif hozirgi kunda barqaror tinchligimiz va taraqqiyotimizni ko‘rolmaydigan ba’zi bir kimsalar, o‘zlarini oqlashga qanchalik urinmasinlar, kelajak avlodni alday olmasliklarini ifodali va ta’sirchan qilib aks ettirgan.

Ijtimoiy-siyosiy asarlarda fikrni lo‘nda va ta’sirchan qilib ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlarida ham muallif ko‘plab frazeologik birliklardan shu maqsadda foydalangan. Darhaqiqat, har bir frazeologik birlik o‘z o‘rnida qo‘llanilar ekan, u muallif niyatini amalga oshirishda, ya’ni ta’sirchanlik va ifodalilikka erishishga xizmat qiladi. Xavfsizligimizga tahdid solib turgan ekologik inqiroz insoniyat oldida turgan katta muammolardan biri hisoblanadi. Asar muallifi buning naqadar xavfli ekanini his etgan holda atrofdagilarni bu masalaga to‘g‘ri baho berishga va uni oqilona hal etishga chaqiradi. Jumladan: “Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, **qo‘l qovushtirib o‘tirish** – o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir”, – deya ta’kidlaydi muallif. Darhaqiqat, ekologik muammo faqat biz yashab turgan mintaqaninggina emas, balki butun insoniyatning muammosiga aylanib ulgurdi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Yuqorida keltirilgan matnda **“qo‘l qovushtirib o‘tirmoq”** iborasidan foydalanilgan. Bu frazeologik birlik “jim turish, muammo oldida tomoshabin bo‘lmoqlik” kabi ma’nolarni obrazli qilib ifodalashga xizmat qilgan. So‘z birikmasi asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida quyidagicha aks ettirilgan:

“At the meeting point of two centuries mankind, the population of our country face a global ecological threat. **To stand idle** by, to be impartial means to be condemned to extinction”.

“Qo‘l qovushtirib o‘tirmoq” iborasi ingliz tiliga “t**o stand idle”** tarzida o‘girilgan. Uni o‘zbekchada ifodalasak, “hech narsa qilmasdan vaqtni bekorga sarf qilish” ma’nosini anglatadi.

Ingliz tilidagi “t**o stand idle**” iborasining obyekti “**idle**” so‘zi bo‘lib, u o‘zbek tilida “band bo‘lmagan”, “ishlamaydigan”, “bo‘sh”, “yalqov”, “erinchoq”, “ishsiz yurmoq”, “vaqtni bekorga o‘tkazmoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, asar tarjimonlari asliyatdagi “qo‘l qovushtirib o‘tirmoq” iborasini ingliz tilidagi muqobil varianti yordamida o‘girganlar.

Oldingi sahifalarda ta’kidlaganimizdek, tildagi frazeologik birliklar, asosan, voqea-hodisani jonli va obrazli qilib ifodalash bilan bir qatorda, ma’noni kuchaytirib, hissiy-emotsionallik hosil bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu erda “qo‘l qovushtirib o‘tirmoq” iborasi orqali ma’no ko‘chishi hodisasi ro‘y beryapti. Aslida “qo‘l qovushtirmoq” birikmasi “qo‘lni, besh panjani birin-ustun kesishtirgan holda tutmoq” ma’nosini ifodalasa, ko‘chma ma’noda, “ish qilmasdan kekkayib, qaqqayib qarab turmoq” ma’nosini anglatadi.

Asar muallifi ham insoniyat oldida tahdid solib turgan ekologik muammoning naqadar muhimligi, uning oldini olish, kerak bo‘lsa har bir inson bu muammo qarshisida loqayd bo‘lmasligi kerakligini timsoliy va ta’sirchan qilib ifodalab bergan. Aslida, bu ibora orqali anglashilgan ma’noni oddiy qilib **“ekologik muammo oldida har bir inson jim turmasdan harakat qilishi kerak”**, deb ifodalash ham mumkin edi. Lekin bunday bayon tarzi ana shu muammo yechimi o‘ta muhim ekanini ta’sirchan ifodalay olmasligi mumkin edi. Bu erda muallif, o‘z fikrini bayon qilish bilan bir qatorda, har bir odamni ekologik muammoni hal etish uchun kurashga da’vat eta olgan. Ingliz tilidagi “**to stand idle”** iborasi asliyatda berilgan iboraga teng ma’no anglatib, tarjimada muallif uslubini ham saqlab qolishga xizmat qilgan.

Ushbu frazeologik birlik rus tilida quyidagicha berilgan:

“Na rubeje vekov chelovechestvo, naselenie nashey stranы okazalosь pered litsom globalьnoy ekologicheskoy ugrozы. Ne zamechatь etogo, **bezdeystvovat** – znachit obrech sebya na vimiranie”.

Asliyat matnidagi **“qo‘l qovushtirib o‘tirmoq”** iborasi rus tiliga **“bezdeystvovat”** deb berilgan. Rus tilidagi ushbu so‘z o‘zbek tilida “faoliyatsizlik, harakatsizlik” ma’nolarini anglatadi. Demak, asliyatda qo‘llanilgan frazelogik birlik ifodalagan ma’no rus tilida ham, aynan muqobil.

O‘tmishda ota-bobolarimiz tomonidan e’zozlab kelingan qadriyatlarimiz bugungi kunda yana o‘z qadr-qimmatini topmoqda. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turli xalqlarni o‘zida jamlagan holda tinchlik markazi bo‘lib kelgan. Hatto, g‘arazli niyat bilan bostirib kelgan

har qanday bosqinchi ham bu madaniyatlar, urf-odatlar, an'analarni inkor eta olmagan. Bu borada asar muallifi quyidagi fikrlarni bayon etadi:

"Hatto, bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati oldida **bosh egib**gina qolmay, uning eng qimmatbaho an'analarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'analarini avaylab qabul qilganlar".

Muallif ana shu xalqlarning madaniyatlarini, qimmatbaho an'analarini qadrlab, ularga nisbatan hurmat bilan qaragan, qisqa qilib aytganda, ta'zim qilganliklarini ifodali tarzda ta'sirchan qilib birgina **"bosh egib"** degan frazeologik birlik bilan ifodalab bergan. Ushbu ibora orqali asar muallifi ming yillar oldin ham Markaziy Osiyo xalqlari o'zgalar havas qiladigan darajada yuksak madaniyatga, bebaho qadriyatlarga, o'z milliy an'analariga ega ekanini tasvirlash bilan bir qatorda, o'zgalarning ana shu qadriyatlarga qanchalik hurmat bildirganliklarini aks ettirgan. O'zbek tilidagi "bosh egmoq" iborasi "bo'ysunmoq, itoat qilmoq, tiz cho'kmoq; sajda qilmoq" ma'nolarini anglatadi. Ushbu ifoda usuli, frazeologik birlikning ta'sirchan ma'nosi asarning inglizcha tarjimasida quyidagicha o'z ifodasini topgan:

"Even those who conquered this territory not only **admired** the culture of Central Asian nations, but carefully adopted the traditions and elements of state system that existed on this territory".

Asarda keltirilgan "bosh egib" iborasi ingliz tiliga "admired" tarzida o'girilgan. O'zbek tilidagi "bosh egib" iborasi "sajda qilmoq" ma'nosini ifodalar ekan, buning zamirida "hurmat qilish, ta'zim qilish" (albatta, qo'rqqanidan emas) kabi ma'nolar ham yotadi. Bu borada asar muallifi, hatto, bosqinchilar ham bu erdagi xalqlarning madaniyatini qo'rqqanlaridan emas, o'sha madaniyatning yuksakligidan havas bilan qaraganliklarini ta'kidlaydi.

Ingliz tilidagi "admire" fe'li o'zbek tiliga "hurmat qilmoq, yaxshi fikrda bo'lmoq, ta'zim qilmoq (qo'rqqanidan emas)" ma'nolarini bildiradi.

Demak, tarjimonlar asliyat matnida berilgan frazeologik birlikning ma'nosini ingliz tilidagi oddiygina bir so'z orqali ifodalab bergan. Shu bilan ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida muhim xususiyat bo'lgan ma'no ustuvorligiga erishilgan, lekin muallifning uslubi, iboraning ta'sirchanligi va timsoliyligi o'z ifodasini topmagan.

Asliyat matnida qo'llangan ushbu ibora rus tilida quyidagicha berilgan:

«Daje te, kto zavoevыval eti territorii, ne tolьko **preklonyalis** pered kulturoy narodovssentralnoy Azii, no i berejno perenimali traditsii, elementi sushestvovavshey na etoy territorii gosudarstvennosti».

Asarda berilgan "bosh egib" iborasi asarning rus tilidagi nashrida "**preklonyalis**" tarzida berilgan. «Preklonyalis» so'zi o'zbek tilida "bosh egishardi, tiz cho'kishardi, sajda qilishardi" kabi ma'nolarni ifodalaydi.

So'zlardan anglashiladigan ma'nolarga va ularning ishlatilish o'rinlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asliyat matnidagi "bosh egib" iborasining ma'nosi rus tilida "preklonyalisь" so'zi orqali ifodalangan.

Asliyatda mavjud iborani shunga teng bo'lgan boshqa bir muqobil ibora bilan o'girish ham tarjima tamoyillaridan sanaladi. Albatta, buni amalga oshirish uchun asar tarjima qilinayotgan tilda so'zlashuvchi xalqlar lisoniy imkoniyati va milliy urf-odatlaridan kelib chiqish kerak. Ba'zan shunday frazeologik birliklar ham uchrab turadiki, ular har ikki tilda ham tushunarli bo'ladi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish yo'li bilan tarjima tilida ham aynan shu iborani hosil qilish mumkin. Masalan, asarning "Xavfsizlikka tahdid" deb nomlangan birinchi bobida muallif islom dini, uning tarixi va muqaddasligi haqida so'z yuritar ekan, quyidagi fikrlarni aytadi: "Din, shu jumladan islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'ziyoq u inson tabiatida **chuqur ildiz otganligidan,** uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi". Darhaqiqat, islom dini kishini faqat yaxshilikka, ezgulikka etaklovchi dindir. Shu bois u shu dinga e'tiqod qiluvchi insonlar qalbining to'ridan joy olgan. Islom dinining kishilar ma'naviyatida tutgan o'rni, musulmonlar qalbidan chuqur joy olganini muallif "chuqur ildiz otgan" iborasi orqali ifodalaydi. Bu ibora o'z ma'nosida "ildizi har tomonga o'sib, baquvvat tortmoq" (o'simlik haqida), ko'chma ma'noda esa "tomir yoyib keng tarqalmoq, hamma yoqni egallamoq"ni ifodalaydi.

Demak, asarda ibora ko'chma ma'noda qo'llangan va o'z o'rnida hissiy-ekspressivlikni hosil qilib, ma'noning kuchayishi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

To'g'ri, ushbu frazeologik birlik aks ettirgan ma'noni oddiy so'zlar yordamida ham ifodalash mumkin edi. Lekin oddiy so'zlar, ma'no aks ettirishdan tashqari timsoliylik, ta'sirchanlik va ma'no kuchaytirish kabi vazifalarni ado etolmaydi. Muallifning bayon tarzi, uslubi va mahoratini asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida mutarjimlar qanday ifodalaganlar. Asliyat ifoda uslubi tarjimada ham o'z aksini topganmi? Ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun quyidagi iborani asarning inglizcha tarjimada berilishini ko'ramiz:

TILSHUNOSLIK

“The very fact of stable existence of religions, including Islam, during a millennium, testifies that **they have deep roots** in human nature and perform a set of inherent functions”.

Asliyatda *ildiz otgan* iborasi asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida *ildizga ega* tarzida berilgan. Buni asliyatdagi iborani qisman o‘zgartirib tarjima qilish, deb atash mumkin.

Ushbu matn asarning ruscha nashrida quyidagicha berilgan:

«Sam fakt ustoychivogo, na protyajenii tisyacheletiy, sushestvovaniya religii, v tom chisle i islama, svidetelstvuet o tom, chto ona **imeet glubokie korni v chelovecheskoy prirode**, vipolnyaet tseliy ryad prisushix ey funksii».

Yuqorida asliyatdagi “inson tabiatida chuqur ildiz otgan” iborasini har ikki tilda berilishini ko‘rib chiqdik. Asar tarjimoni muallif qo‘llagan iborani ingliz tiliga o‘girish orqali asliyatda anglashilgan ma’noni tarjima tilida aks ettira olgan. Bundan tashqari, muallif uslubi, obrazlilik va iboraning ta’sirchanligi ham saqlanib qolgan.

XULOSA

“O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarining inglizcha tarjimalari va ruscha nashrida frazeologik birliklar quyidagicha o‘girilgan:

- frazeologik birikmani tarjima tilidagi muqobil varianti bilan berish;
- asliyatdagi frazeologik birikma obyektining bir qismini o‘zgartirib tarjima qilish;
- asliyatdagi frazeologik birikmani so‘zma-so‘z tarjima qilish;
- frazeologizmlar anglatgan ma’noni tarjima tilida tavsiflash.

Shu tariqa tarjimonlar mustaqillik davri ijtimoiy-siyosiy asarlari tarjimasida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan tarjima tamoyillaridan yana bir bor amalda foydalanib o‘z maqsadlariga erishganlar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. Uzbekistan na poroge XXI veka: ugrozы bezopasnosti, usloviya i garantii progressa. – Moskva: Drofa, 1997, – 316 b.

2. Karrimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1997, – b. 326.

3. Karimov I. Uzbekistan on the Threshold of the Twenty First Century. –Great Britain: Curzon, 1997. – b. 196.

4. Abdullaev M. Abdullaeva M. Mustaqillik: Izohli ilmiy–ommabop lug‘at // to‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: Sharq, 2006, – b. 356.

5. Akobirov S. Til va terminologiya. –Toshkent: 1969. – b. 168.

6. Anushkin N.S. Qisqacha siyosiy lug‘at.–Toshkent: O‘zbekiston, 1975.– b .312.

7. Barxudarov L. S. YAzik i perevod. –Moskva, Mejdunarodnie otnosheniya, 1975, –239 b.

8. Bektemirov H. Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. –Toshkent: FAN, 2002. – b. 88.

9. G‘afurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish // O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Mehridaryo, 2008, – b .10.

10. Djumabaeva J. Mustaqillik davri publitsistik asarlaridagi qo‘shma gaplar talqini (o‘zbek va ingliz tillaridagi matnlarning qiyosiy tahlil asosida). –Toshkent: 2006. – b. 161.

11. Ma’murov Z. M. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Moskva: Rus tili, 1981.

12. Meliev S. Tarjima va falsafiy ma’no // Tarjima san’ati // maqolalar to‘plami. –Toshkent: 1980, – b. 252.

13. Salomov G‘, A’zamov S. Tarjima asoslari // o‘quv qo‘llanma – Toshkent: adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – b. 88.

14. Salomov G‘, Saidov F. Matn, tarjima va istiloh // Filologik tahlil. – Toshkent: 1989, – b. 88.

15. Usmonov O. Ijtimoiy–siyosiy terminlar lug‘ati.–Toshkent:FAN,1976 – b. 421.

16. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.